

**“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki
aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida
NIZOM
(yangi tahriri)**

Muqaddima

- 1-§. Umumiy qoidalar
- 2-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining vakolatlari
- 3-§. Aksiyadorning Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqi. Aksiyadorlar va ularning vakolatli vakillarini ro‘yxatdan o‘tkazish
- 4-§. Bank aksiyadorlari yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish
- 5-§. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish
- 6-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining kvorumi
- 7-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishini olib borish tartibi
- 8-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishida ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish
- 9-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining bayonnomasi
- 10-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi qarorlarini bajarish

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” qonunlari asosida ishlab chiqildi va u “Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining maqomi, uni o‘tkazish va unda qarorlar qabul qilinishi tartibini belgilaydi.

1-§. Umumiy qoidalar

1. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi Bankning yuqori boshqaruv organi.
Bank har yili Bank aksiyadorlari hisobot (yillik) umumiy yig‘ilishini o‘tkazadi.
2. Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi Bank ustavida belgilangan muddatda, ammo moliya yili tugaganidan keyin ko‘pi bilan olti oy ichida o‘tkaziladi.
3. Bank aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishidan boshqa o‘tkazilgan umumiy yig‘ilishlar navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlar hisoblanadi.
4. Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, yig‘ilish o‘tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish shakli, Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan axborot va materiallar ro‘yxati Bankning kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

Bank tomonidan Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishda kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish va ovozga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha qaror qabul qilishda

axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalanilgan holda ishtirok etish imkoniyati yaratilishi mumkin. Bunda Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va masofadan turib elektron ovoz berishning umumiy tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

2-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining vakolatlari

5. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

a) Bank ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

b) Bankni qayta tashkil etish;

d) Bankni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

e) Bank kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

f) Bankning kuzatuv kengashi tomonidan tayinlangan Bank boshqaruvi raisini tasdiqlash;

g) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

h) Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

i) Bankning ustav kapitali kamayganda yoki Bank aksiyalarining soni qisqarganda Bankning o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

j) Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

k) Bankning yillik hisobotini, shuningdek Bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Bankni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

l) Bankning foydasi va zararini taqsimlash;

m) Bank kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Bankni boshqarishga doir O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Bank kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

n) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

o) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

p) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining 8-bobida nazarda tutilgan yirik bitimlarni tuzish haqida qaror qabul qilish;

q) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonunining 9-bobida nazarda tutilgan hollarda Bankning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

r) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

s) O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

3-§. Aksiyadorning Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi. Aksiyadorlar va ularning vakolatli vakillarini ro'yxatdan o'tkazish

6. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ushbu umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan "Bank aksiyadorlari reestri"da qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

Bank aksiyadorning talabiga ko'ra unga Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan "Bank aksiyadorlarining reestri"ga uning kiritilganligi to'g'risida axborotni taqdim etadi.

7. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida "Bank aksiyadorlari reestri"da qayd etilgan aksiyadorlar, ularning vakolatli vakillari, auditor, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi a'zolari hamda taklif etilgan boshqa shaxslar qatnashish huquqiga ega.

8. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida qatnashish uchun aksiyadorlar yoki ularning vakolatli vakillari yig'ilish to'g'risida bildirishnomada ko'rsatilgan joy va vaqt bo'yicha ro'yxatdan o'tadi.

9. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida qatnashish uchun kelgan aksiyadorlar–jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish shaxsni tasdiqlovchi hujjat, vakilni esa notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiriladi.

10. Bank aksiyadori bo'lgan yuridik shaxs rahbari Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida o'z vakolatlarini egallab turgan lavozimiga tayinlash to'g'risida huquqiy hujjat va shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiradi.

11. Aksiyadorning vakili Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Ishonchnomada vakolat bergan va vakil qilingan shaxs to'g'risida ma'lumotlar [famiyasi, ismi, otasining ismi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan manzili, pasportiga (ID-kartasiga) oid ma'lumotlar] bo'lishi lozim. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma uning rahbari imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

12. Agar Bankning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi.

Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

13. "Bank aksiyadorlari reestri"ga muvofiq qayd etish ro'yxati tuziladi. Qayd etish ro'yxati muqovalangan, tartib raqami qo'yilgan, ip o'tkazib tikilgan va Bankning asosiy muhri bosilgan bo'lishi kerak.

14. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazishda aksiyadorlar (ularning vakillari) qayd etish ro'yxatiga imzo chekadi va "Bank aksiyadorlari reestri"dagi ma'lumot asosida aniqlangan har bir aksiyadorning ovoz beruvchi aksiyalari sonidan kelib chiqib ovoz berish uchun byulletenlar to'plamini oladi.

15. Agar Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qatnashchisi bir yoki bir necha aksiyadorning manfaatlarini ifodalashga ishonchnoma taqdim etsa, bu holda unga manfaati ifodalayotgan aksiyador (aksiyadorlar) uchun ovoz berishga byulleten beriladi, qayd etish ro'yxatida esa manfaati ifodalayotgan aksiyadorning familiyasi qarshisiga "__" ta ovoz beruvchi aksiyalar bo'yicha 20__ yil "__" _____ da berilgan ___-son ishonchnoma bo'yicha" degan yozuv qayd etiladi hamda vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

4-§. Bank aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

16. Bank aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishni Bankning kuzatuv kengashi amalga oshiradi va u quyidagilarni belgilaydi:

a) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, joy va vaqtni;

b) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibini;

d) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun "Bank aksiyadorlari reestri"ning shakllantiriladigan sanasini;

e) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida aksiyadorlarga xabar qilish tartibini;

f) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim qilinadigan axborot va materiallar ro'yxatini;

g) ovoz berish byulletenining shakli va matni;

h) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibini.

17. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar mazkur yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portali, Bankning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

18. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabarda quyidagilar

ko'rsatiladi:

a) Bankning nomi, joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

b) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;

d) "Bank aksiyadorlari reestri"ning shakllantiriladigan sanasi;

e) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar;

f) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi [aksiyadorlarga berilishi lozim bo'lgan axborotdan (materiallardan) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etadigan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etadigan shaxslar ushbu umumiy yig'ilish o'tkazilguniga qadar va uni o'tkazish vaqtida foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak];

g) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish va ovoz berish, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

19. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) quyidagilar kiradi:

a) Bankning yillik hisoboti;

b) Bankning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik tashkilotining xulosasi;

d) Bank kuzatuv kengashining Bank boshqaruvi raisi bilan tuzilgan shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish, shartnomani qayta tuzish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida xulosasi;

e) Bankning kuzatuv kengashi a'zolariga nomzodlar to'g'risida ma'lumotlar;

f) Bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar loyihasi yoki Bank ustavining yangi tahriri loyihasi;

g) Bank kuzatuv kengashining Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha nuqtai nazari.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Bankning boshqaruv va nazorat organlarining ma'ruzasi (hisoboti) yozma shaklda taqdim qilinadi.

Bank kuzatuv kengashining korporativ boshqaruv normalariga amal qilinishi bo'yicha yillik hisobotida Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi, Bankning kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi tomonidan (o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar doirasida) qilingan ishlar to'g'risida axborot qayd etiladi.

Bank boshqaruvi raisining Bankning hisobot yilidagi faoliyati yakunlari to'g'risida ma'ruzasida Bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari haqida ma'lumot, shu jumladan aktivlar,

depozitlar, aholi omonatlari, jami kapital va sof foyda, shuningdek kelgusi davrda rivojlantirish yo'nalishlari aks ettiriladi.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborot (materiallar) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

20. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi chaqirilgunga qadar uzog'i bilan 20 kun ichida yig'ilish kun tartibi masalalariga oid taklif kiritishga haqli hisoblanadi.

21. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi chaqirilishidan 10 kun oldin Bankning kuzatuv kengashi a'ziligiga, ushbu kengashning son tarkibidan oshmaydigan tarzda, nomzodlar ko'rsatishga haqli hisoblanadi (bundan Bank kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish mustasno).

Agar ushbu ko'rsatilgan nomzodlar Bankning kuzatuv kengashi a'zolari etib saylangan taqdirda, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi bayonnomasida ular qaysi aksiyadorning vakili ekanligi, shuningdek Bank kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

22. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), ularga (unga) tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

23. Bankning kuzatuv kengashi a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish haqida taklif kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi, unga tegishli aksiyalar soni va turi (agar nomzod Bank aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), ularga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatiladi.

24. Bankning kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqadi hamda ularni Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

25. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Bankning kuzatuv kengashi a'ziligiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritiladi, quyidagi hollar bundan mustasno:

a) ushbu Nizomning 20-bandida belgilangan muddatga aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan rioya etilmagan bo'lsa;

b) aksiyadorlar (aksiyador) Bankning ushbu Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan miqdordagi ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lmasa;

d) agar ushbu Nizomning 22-bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;

e) takliflar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni talablariga muvofiq bo'lmasa.

26. Bank kuzatuv kengashining masalani Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni Bankning kuzatuv kengashi a'zolariga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risida asoslantirilgan qarori masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorlarga (aksiyadorga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kundan kechiktirmay yuboriladi.

5-§. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish

27. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi quyidagi hollarda Bank kuzatuv kengashining qarori bo'yicha o'tkaziladi:

a) Bank kuzatuv kengashining o'z tashabbusiga asosan;

b) yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi asosida.

28. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga binoan Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish ushbu yig'ilishni o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Bankning kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

29. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar, ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda, ifodalangan bo'lishi lozim.

30. Bankning kuzatuv kengashi Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga binoan chaqiriladigan Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalarning talqiniga o'zgartirish kiritishga haqli emas.

31. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish talabi aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda ushbu yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) familiyasi, ismi, otasining ismi (nomi), unga tegishli aksiyalar soni va turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

32. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab ushbu yig'ilishni chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

33. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lgan aksiyador (aksiyadorlar) Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risida talabnoma taqdim etgan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida Bankning kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki ushbu yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.

34. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risida qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

a) Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) talabnoma taqdim etgan kunga Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga ega bo'lmasa;

b) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

d) kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" qonuni talablariga muvofiq bo'lmasa.

35. Bank kuzatuv kengashining Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida asoslantirilgan qarori ushbu yig'ilish chaqirilishini talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

6-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kvorumi

36. Agar Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovozigga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi.

37. Agar imtiyozli aksiyalar kun tartibining faqat bitta yoki bir nechta masalasi bo'yicha ovoz bersa, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi kvorumi taqdim etilgan oddiy aksiyalar soniga qarab belgilanadi, ko'rsatilgan masalalar bo'yicha ovozlarni sanash esa ovoz beruvchi oddiy va imtiyozli aksiyalarning umumiy sonidan kelib chiqib o'tkaziladi.

38. Agar Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi boshlanishi uchun belgilangan vaqtdan so'ng 60 minutdan ortiq vaqt davomida kvorum to'planmasa, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini takroriy chaqirish (o'tkazish) sanasi e'lon qilinadi.

39. Agar Bank aksiyadorlarining o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovozigga ega

bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Bank aksiyadorlarining takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

40. Kvorum bo'lmaganligi sababli Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, ushbu yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan "Bank aksiyadorlari reestri"ga muvofiq aniqlanadi.

7-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini olib borish tartibi

41. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini olib borish tartibi yig'ilishning boshlanishi va taxminan tamom bo'lishi vaqtini, ma'ruzalar qancha vaqt davom etishi va tanaffuslarni, kun tartibiga kiritilgan masalalarning izchilligini, kun tartibi masalalari bo'yicha ma'ruzachilarning familiyasi va lavozimini, ovoz berishni amalga oshirish va uning natijalarini e'lon qilish tartibini nazarda tutadi.

42. Bankning kuzatuv kengashi raisi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida raislik qiladi, u uzrli sababga ko'ra bo'lmagan taqdirda, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida raislikni Bank kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

43. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining sanoq komissiyasi, prezidiumi va kotibini saylashni taklif etadi.

44. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi umumiy yig'ilishning borishiga rahbarlik qiladi, umumiy yig'ilishning sanoq komissiyasi, prezidiumi va kotibi faoliyatini muvofiqlashtiradi, masalalarni muhokama qilish tartibini belgilaydi, ma'ruzachilarning so'zlash vaqtini chegaralaydi, yig'ilishni olib borish va ovoz berish davomida tushuntirishlar beradi, zalda tartib o'rnatilishini nazorat qiladi, umumiy yig'ilishning audio-video yozuvi va Internet tarmog'idagi translyatsiyasiga ruxsat beradi. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi davomida yuzaga keladigan joriy masalalarni u mazkur yig'ilishda muhokama qilinayotgan masala bo'yicha har bir qatnashchi belgilangan vaqt doirasida so'zga chiqish huquqidan foydalanishi mumkinligidan iborat bosh prinsipdan kelib chiqib yakkaboshchilik bilan hal etadi.

45. Kun tartibidagi barcha masala muhokama qilingandan keyin Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishini yopiq deb e'lon qiladi.

46. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bayonnomasi imzolaydi.

8-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berish va ovozlarni sanab chiqish

47. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berish "Bankning ovoz beruvchi bitta aksiyasi – bitta ovoz" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, bundan Bankning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari mustasno.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida shaxsan ishtirok eta olmaydigan aksiyadorlar O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vakolatini vakilga berish yo'li bilan ovoz berishi mumkin.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida kun tartibidagi masalalar bo'yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib ovoz berilganda ovoz berish byulletenidan foydalanilmaydi. Bunda ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorning qonuniyligi aksiyadorni Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatga olishda foydalaniladigan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi (hal qiluvchi egalik maqomiga ega bo'lgan) aksiyadorning ovoz berish huquqi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo'llanilgan sanksiya tufayli to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, u Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ovoz berishda qatnasha olmaydi.

48. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarori Bankning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (oddiy ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi, bunda ushbu Nizomning 5-bandini "a", "b", "d", "g", "m", "p" va "q" kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror, istisno tariqasida, Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rt dan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

49. Ovoz berilganida ovoz beruvchi qaysi masala bo'yicha ehtimol tutilgan ovoz berish variantlaridan faqat bittasini qoldirgan bo'lsa, o'sha masala bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinadi. Mazkur talabni buzgan holda to'ldirilgan ovoz berish byulletenlari haqiqiy emas deb topiladi va ulardagi masalalar bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

Agar ovoz berish byulletenida ovozga qo'yilgan bir nechta masala ko'rsatilgan bo'lsa, bir yoki bir nechta masalaga nisbatan mazkur bandning birinchi qismida ko'rsatilgan talabga rioya etilmaganligi byulletenning umuman haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lmaydi.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorga o'zi to'ldirgan byulleten nusxasini olish imkoni beriladi.

50. Ovoz berish yakunlari bo'yicha sanoq komissiyasi ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzadi, bayonnoma Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan foydalangan holda masofadan turib o'tkaziladigan umumiy yig'ilishining kvorumi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi va sanoq komissiyasining a'zolari tomonidan imzolanadi.

Ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi bayonnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

51. Ovoz berish yakunlari aksiyadorlarning ovoz berish o'tkazilgan umumiy yig'ilishida o'qib eshittiriladi, shuningdek Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin ovoz berish yakunlari to'g'risida hisobotni e'lon qilish orqali aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

9-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bayonnomasi

52. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bayonnomasi ushbu umumiy yig'ilish yopilganidan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

53. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

b) Bankning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining umumiy soni;

d) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishida ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarining soni;

e) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining kun tartibi;

f) Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining raisi, prezidiumi va kotibi.

Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy mazmuni, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

10-§. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qarorlarini bajarish

54. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilishi ustidan nazorat qilishni, basharti yig'ilish qarorida o'zgacha hol qayd etilmagan va bayonnomada aks ettirilmagan bo'lsa, Bankning kuzatuv kengashi amalga oshiradi.

55. Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining qarorlari umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan, shuningdek hozir bo'lmagan barcha aksiyadorlar tomonidan, ularga tegishli qismi bo'yicha bajarilishi majburiydir.

Boshqaruv raisi

S.Normuxamedov